

TEKNOLOGIYA FANINI BOLA RUHIYATIGA TA'SIRI

Egamova Gulhayo Erdonovna

*Navoiy viloyati Zarafshon shahri 8-sonli IATCHODIU maktabi
texnologiya fani o'qituvchisi*

Ochilova Nilufar G'afurovna

Tasviriy san'at chizmachilik fani o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqola texnologiya darslarida o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi borasida ma'lumot keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *ruhiyat, bola, texnologiya, o'quvchi, dars, faoliyt, mehnat, bilim.*

Yosh avlodning har tomonlama yetuk bo'lishi ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish bilan chambarchas bog'liq. Bunda umumta'lim maktablarida o'qitiladigan texnologiya fani o'zining muhim o'rniga ega. "Texnologiya" fani o'quvchilar hayotida muhim o'rin tutuvchi amaliy mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko'rishlarida muhim o'rin tutadi. O'quvchi voyaga yetib, qaysi kasbni egallamasin, kim bo'lmasin, "Texnologiya" fanidan olgan bilim va ko'nikmalari hayotda, albatta, naf keltiradi. "Texnologiya" darslarida materialshunoslik, asbob- uskunalar, moslamalar va ulardan foydalanishga oid bilimlarni o'zlashtiradilar. Mahsulot ishlab chiqarish va uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlashga oid ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

Demak, bugungi kunda yoshlarga kasb tanlashlarida, barkamol shaxs bo'lib yetishishlarida, ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishlarida texnologiya fani asosiy ko'makchi va muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida texnologiya fanini bola ruhiyatiga ta'sirida ko'rishimiz mumkin. Texnologiya darslarida uyushtiriladigan sayohatlar davomida o'quvchilar duradgorlik, chilangarlik, tikuvchilik hamda pazandachilik sohalarga oid ko'plab kasb-hunarlar bilan tanishadilar. Bu esa o'quvchilarni kelajak hayotlarida shu kabi kasb-hunarlardan birini egallab, sohaning mohir mutaxassisi bo'lib yetishishlariga sabab ham bo'ladi. Maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilari rangli qog'ozdan har xil gullar, maketlar, tabriknomalar, turli ko'rinishdagi o'yinchoqlar, parranda va jonivorlar shaklini yasash, gazlamalardan ajoyib buyumlar tayyorlash usullari orqali o'quvchilarni gullarga, qushlarga hamda jonivorlarga bo'lgan munosabatlari namoyon bo'ladi. Ayni paytda applikasiya va mozaika usulida ishlash va boshqa turli qo'l ishlarini bajarish jarayonlari ham bolaning ruhiyatiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Texnologiya darslarida berilgan amaliy ishlarni bosqichli bajarish bilan birga mavzudagi savol va topshiriqlarga to'liq javob berishlari o'quvchilarning erkin fikrlashlariga sabab bo'ladi. Poliz ekinlarining urug'laridan applikasiya bajarish jarayonlarida, o'qituvchi ulardan foydalanishdan oldin ularni yaxshilab tozalash va quritib olish kerakligini uqtirish orqali o'quvchilar ruhiyatiga ijobiy ta'siri doimo tozalikka e'tibor berishlari namoyon bo'ladi. Urug'lardan kuzgi gullar shaklini yasashlarida bola ruhiyatida gulchilik bilan shug'ullanuvchilar nozik didli va nafosatli qalb sohiblari gavgaldanadi. Chunki ular bir-biridan chiroyli, turli- tuman gullar yetishtirib, barchaning dilini xushnud etadilar.

Mozaika usulida ertak qahramonlarini yasashda bola ruhiyatiga ta'siri juda katta xisoblanadi, chunki bolani tanqidiy fikrlashga, o'z fikr-mulohazalarini bemalol aytishga o'rgatadi. Fillar haqida nimalar bilasiz? Fillar qanday o'lkalarda yashaydi? savollar berish bilan birga o'quvchilarni tassavvurlarini bo'yitish maqsadida ulardan fillarni plastilindan yasashga o'rgatamiz. Yoki bahorda qanday gullar ochiladi? savol bilan bahorgi guldasta kompozitsiyasini qurish-yasashni o'rgatamiz. Barglardan atirgul yasashlarida o'quvchilardan atirgul haqida qanday she'r bilasiz? deb ularni darsga bo'lgan qiziqishlarini orttiramiz hamda ota-onalari yordamida gullarning boshqa turlarini ham yasab ko'rishlarini uyga vazifa qilib beramiz. Biz pedagoglar o'z navbatida, o'quvchilarga atroflaridagi ularni hayratga solayotgan barcha ezgu ishlar inson mehnati mahsulidir deb uqtirishda davom etamiz. Texnologiya darsida qo'l mehnati bilan bajariladigan ish namunalarini o'rganish bilan birga mehnat anjomlaridan to'g'ri foydalanish, xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni o'rganadilar. Amaliy ishni bajarish bilan birga o'z mehnatlari natijasidan zavqlanadilar. Texnologiya darsi o'quvchilarga chiroyli buyumlar va bejirim sovg'alarni mustaqil yasashda yaqindan yordam beradi. Texnologiya fanini bola ruhiyatiga ta'siri o'quvchilarning topshiriqlarni bajarishlari natijasida ma'lumotlarni qidirish, bajarish tartibini eslash, axborotlardan foydalanish, o'zaro sinfdoshlar va kattalar bilan muloqot qilish va bir-birlariga yordam berish, kelishib ishlashni o'rganishlarida aks etadi.

Xulosa qilib aytganda, bolani mehnatga ruhiy jihatdan tayyorlash - bu unda mehnatga nisbatan uning yoshiga muvofiq keluvchi ongli va ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish, unda amaliy malaka va ko'nikmalarni egallashga qiziqishni shakllantirish demakdir. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarga yoshligidan boshlab mehnat - bu har bir kishining vijdoni va burchi ekanligini, inson o'z mehnati bilan sharaflanishini, faqat Vatan farovonligi yo'lida qilingan mehnatdagina insonning eng yaxshi sifatleri rivojlanishi hamda takomillashishi mumkinligini anglashlariga yordam berishdir. Bolalarning mehnatga qobiliyati har bir kishi jamiyatning hayoti va faoliyati, uning farovonligi uchun zarur bo'lgan vositalarni ishlab chiqarishda qatnashishi zarurligini anglashlari juda muhimdir. Shuningdek, bolalar jamiyatda kishi mehnatsiz yashay olmasligini ham uqib olishlari kerak. Mehnatga ruhiy jihatdan tayyorlash turli psixologik jarayonlarni rivojlantirish va takomillashtirishni nazarda tutadi. Bular sezib anglash, emotsional idrok, diqqat, xotira, tafakkur va shu kabi jarayonlardir. Boshqacha qilib aytganda, ular mehnatning psixologik tarkiblari deyiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.X.R. Sanakulov, D.P. Xodiyeva, A.R. Sanakulova Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik TOSHKENT - 2016
2. A. Mannopova, R. A. Mavlonova, N. R. Ibragimova Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik Toshkent - 2017
- 3.R.A. Mavlonova, M.T. Satbayeva Mehnat o'qitish metodikasi Toshkent - 2013